



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI




O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH
VAZIRLIGI



TOSHKENT
DAVLAT
PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

MAKTABGACHA TA'LIMDA
DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINI RIVOJLANTIRISH:
YANGI SHAKILLARI VA TA'LIM MAZMUNI
mavzusidagi
**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONEFERENSIYA
MATERIALLARI TO`PLAMI**



2020-YIL 13- MAY
TOSHKENT SHAHAR

потребности, что в свою очередь способствует всестороннему личностному развитию детей.

Проект является уникальным средством обеспечения сотрудничества, сотворчества детей и взрослых.

Литература:

- Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан. 18 июня 2018г. № 1-мх.
- Государственная учебная программа «Илк кадам» дошкольного образовательного учреждения. 7 июля 2018 г. П№4.
- Веракса Н.Е., Веракса А.Н. Проектная деятельность дошкольников. Пособие для педагогов дошкольных учреждений. –М.: Мозаика, 2008.



AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN BIOLOGIYANI O'QITISHDA FOYDALANISH

Jabborov B.I.

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi

Fan-texnika rivojlanishining jadallahuvi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy-texnikaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lif tizimi oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo'yadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maqsadi har tomonlama kamol topgan, bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashgan, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratligi ta'kidlab qo'yilgan. Bu talablarni amalga oshirish uchun o'qitishning samarali shakllari va vositalarini ishlab chiqib, ta'lif jarayoniga tatbiq etish, ta'lifning talaba shaxsiga qaratilgan demokratik yo'nalishlarini rivojlantirish, didaktik va axborot vositalarining yuqori samara beradigan yangi avlodini yaratish va ta'lif jarayoniga joriy etish zarur.

Bugungi kunda, ta'lif tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002 yil 30 mayda qabul qilgan "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080-sonli Farmonida kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish hamda joriy etishga doir ustuvor vazifalari aniq ko'rsatilgan. Kundalik hayotimizda media-texnologiyalarning o'rni tobora kengayib bormoqda. Katta hajmdagi yangi axborotlar, reklamalar, televiedeniya ko'rsatuvlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, kompyuterlar va ulardan foydalanish talabalarning ta'lif-tarbiyasi, ularning atrofdagi voqe-a-hodisalar to'g'risidagi tasavvurlari, tafakkuri hamda idrokiga katta ta'sir etmoqda.

Global doirada rivojlanib borayotgan yuqori texnologiyalar ta'lif tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashdagi yangidan-yangi imkoniyatlarini aniqlash va ularni izchillik bilan amaliyatga tatbiq etishni talab etmoqda. O'z navbatida, kompyuter texnologiyalarining jadal taraqqiyoti – ularning ta'lif jarayonida keng qo'llanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda. Inson faoliyatining barcha jabhalari, jumladan, ta'lif tizimida internetni jamiyatni taraqqiy ettirishning yetakchi omillaridan biri sifatida joriy etish, bilim oluvchilarining borliqni AKT vositalari asosida mavzuni o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq masalalarning izchil hal etilishi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Biologiya ta'lifi jarayonini interfaol dasturiy vositalar yordamida tashkil etishning o'ziga xos ijobjiy tomonlari mavjud. Pedagog interfaol dasturiy vositalar yordamida o'quv materialiga ishlov berishi natijasida o'quv materiali bo'yicha axborotlarni qabul qilish, ularni atroflicha mustahkamlash va sinash yagona tizimga aylanadi. Ta'lifda amal qiladigan qaytar aloqa yangicha

ahamiyat kasb etdi. Mavzularni to‘liq o‘zlashtirish uchun psixologik, pedagogik, didaktik, uslubiy jihatdan zamin yaratiladi. Biologiya ta’limi jarayonini interfaol dasturiy vositalar yordamida asosli loyihalash ilm orqali ta’lim va ilmiy tayyorgarlikni muvofiqlashtirish, talabalarning ilmiytadqiqotchilik imkoniyatlarini rivojlantirish darajasini orttirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Interfaol dasturiy vositalarni qo‘llash asosida:

- ✓ ta’lim oluvchilarning axborotlarni qabul qilish va qo‘llash malakalari oshadi;
- ✓ amaliy faoliyatida axborotlarni o‘ziga xos tushunish va qo‘llash imkoniyatlari kengayadi;
- ✓ jahon ommaviy axborot vositalari bilan erkin muloqoti ta’minlanadi.

Biologiya ta’limida interfaol dasturiy vositalarni yaratishda qo‘llanilayotgan va qo‘llanilishi zarur bo‘lgan elektron resurs manbalariga: o‘quv materiallari (darslik, qo‘llanma, audiodarslar, videofilmlar, nazorat materiallari va boshqalar), audiodisklar, videokassetalar va videokliplar, telefon, radio va televideonie, elektron aloqa, kompyuterli ta’lim dasturlari, teleanjumanlar (audio va videoanjumanlar, audiografik anjumanlar va hokazolar) kiradi.

Talabalar dasturga kiruvchi ob’ektlardan o‘zlariga tegishli axborot manbaini yaratish, ularni to‘ldirish, ta’lim olishning minimum doirasida uni o‘zlashtirish, ayrim mavzu va kursning ma’lum bo‘lagini chuqur darajada o‘rganish, interaktiv elementlardan foydalangan holda bilimini testlar orqali tekshirish, turli xil tajribalarni o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu o‘rinda talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunish darajasi, xotirada saqlash va uni qo‘llash imkoniyatlarini yuksaltirish maqsadida interfaol elektron doskalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda qo‘l keladi.

Elektron dasturlar va o‘quv kurslari yuqorida qayd etilganlarning barchasini yoki bir nechtasini bir majmuaga birlashtiradi. Masalan, talabaga dastlab o‘rganiluvchi kursni ko‘rish (taqdimot), so‘ngra esa o‘rganuvchi o‘rganiluvchi kursni (virtual tajriba tizimi) ko‘rishi jarayonida olingan bilim asosida talabaga virtual tajriba o‘tkazish taklif etiladi.

Ilgari talabalar istalgan mavzuga oid axborotlarni: darslik, ma’lumotnomalar, adabiyotlar, o‘qituvchi beradigan saboqlar, darsni konspektlashtirish vositasida egallagan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, asosan televizor va radio, elektron darsliklar, internet orqali o‘zlashtirmoqda. Shu sababli ham o‘qituvchi zamонавиу voqelikka to‘g‘ri yondashgan holda ta’lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi zarur.

AKTdan foydalanib dars o‘tishda pedagog o‘z mehnatining ko‘p qismini kompyuterga yuklashi mumkin bo‘ladi. Bu bilan darsni yanada qiziqarli, rang-barang qilib, mazmunan boyitadi. Pedagog talabaning bilimini o‘z vaqtida xolisona baholab boradi, ularga noan’anaviy saboq berish usullarini topishga ijodiy yondashadi. Bu esa pedagogning kasbiy jihatdan rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Shuningdek, talaba olishi kerak bo‘lgan axborotni hali davr talabiga mos vaqtidayoq, o‘z dolzarbligini yo‘qotmasdanoq olish imkoniyati mavjudligi va topshiriqlarning murakkablik darajasini to‘g‘ri baholash sharoiti yaratiladi. Talabaning bilimini qisqa vaqt mobaynida aniqlab, uni to‘g‘ri yo‘naltirishida o‘qituvchi oldida qulay imkoniyat yaratiladi.

Talabalarlar kompyuterda masalalarni yechish, jadval va grafik yechimlarni tuzish, chizmalar chizish, matnlar yaratish, rasmlar chizish kabi ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Bu esa - talabalar ijodiy tafakkuri rivojlanishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim jarayonida talabaga suhbat asosida yoki dialog tarzida ta’sir ko‘rsatilib, talaba shaxsi, intellektual va ijodiy qobiliyati, kelajakda o‘z-o‘zini rivojlanirish va shakllantirishiga sharoit yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 592 b.
2. Ergasheva G.S. Biologiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2016. – 212 b

26. **Gapparova M.E.** Oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy-pedagogik 54 faoliyatga tayyorlash jarayonlari tahlili
27. **Gapparova M.E., Safaeva I.** Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash 57 jarayonlarini tashkil etish va boshqarish
28. **Грошиева И.В.** Тенденции развития дошкольного образования Республики 60 Сингапур
29. **Грошиева И.В.** Эффективная организация центров развития в дошкольной 64 образовательной организации в контексте государственной учебной программы «Илк кадам»
30. **Dehqonova G.A.** Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni mакtabga 67 tayyorlashning pedagogik va psixologik omillari
31. **Джавлиева Г.** О принципе историзма в обучении школьному курсу 69 математики
32. **Джасамилова Н.Н.** Технологии развития инициативности у студентов 72 направления дошкольного образования
33. **Джсанпеисова Г.Э.** ТРИЗ и методика математического развития ребенка 75 дошкольного возраста
34. **Djanpeisova G.E., Abdumuminova L.A.** The use of mathematical material in the 77 diagnosis of the formation of readiness of children for school
35. **Джсанпеисова Г.Э., Мамтиева М.Н.** Математическое образование 79 дошкольников посредством развивающих игр с применением кейс-технологии
36. **Дубинина Д.Н.** Этнокультурное образование детей дошкольного возраста в 82 Беларуси
37. **Дубинина Д.Н., Дубинин Д.В.** Задачи, содержание и принципы, 84 этнокультурного образования детей дошкольного возраста в Беларуси
38. **Do'stova M.T., Xo'janiyozova B.X.** Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining 86 rivojlanishida tarbiyachining o'rni
39. **Евстафьевна Л.Г.** Технология проектирования, обеспечивающая качество 88 дошкольного образования
40. **Jabborov B.I.** Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan biologiyani o'qitishda 90 foydalanish
41. **Jabborova D.F.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni barkamol qilib 92 tarbiyalashda tarbiyachi kompetentligini oshirish
42. **Jalilov Z.B., Azimova N.H., Rahmonova S.** Maktabgacha ta'lim muassasalarida 94 estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari
43. **Жамилова Ф.** Использование STEAM-технологии в образовательном 97 процессе ДОУ
44. **Jamoldinova O.R., Mirsolieva M.T., Risqulova K.** Pedagogik ta'limda gender 99 yondashuv masalalari
45. **Janabergenova A.J.** Zamonaliv ta'lim sharoitida talabalarda mustaqil ta'lim olish 101 ko'nikmalarini rivojlantirish
46. **Зверева О.Л.** Дошкольное образование в странах Европы: общие тенденции 103
47. **Ziyodullaeva D.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining faoliik 105 markazlaridagi innovatsion faoliyati
48. **Ibragimova G.M., Haydarova SH.N.** “Sehrli so‘zlar, sehrli qalblar” 107 metodikasidan foydalanib bolalar ko‘ngliga yo‘l topish
49. **Ibrahimjanova G.A.** Musiqa tinglash – maktab o‘quvchilari musiqiy faoliyatining 109 asosiy turidir
50. **Iminova M.A.** Maktabgacha yoshidagi bolalarni mакtab o‘quv faoliyatiga 112 tayyorlashda kitobxonlikni yo‘lga qo‘yishning samaradorligi